

KO'P OVOZLI QO'SHIQ MALAKALARINI O'STIRISH ASOSLARI.

Ibragimova Shaxnozaxon Baxodirovna

Xalqaro Nordik universiteti 2-bosqich magistranti Telefon: +998946211661

Annotatsiya: Musiqa inson hayotida alohida o'rin tutadi. Musiqa san'ati – nafosat tarbiyasining muhim omili bo'lib, yosh avlodni kamolotga etishi uchun ta'sir etuvchi jarayon. Bu jarayon maktabdan boshlab shakllanadi va yosh avlodning ichki dunyosini boyitib, butun hayoti mobaynida unga xamrox bo'lib boradi.

Kalit so'zlar: tovush, registr, musiqa savodi, partiya, ikki ovozli qo'shiq.

Musiqiy nafosat tarbiyasining o'zagi boshlang'ich sinflardan boshlanadi. Musiqiy nafosat tarbiyasining asosi – musiqa madaniyati darslari hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslarini unumli o'tish va bolalarning mustaxkam bilim olishlari uchun, bo'lajak musiqa o'qituvchisi musiqa madaniyati darslarida beriladigan barcha o'quv materiallarini puxta o'zlashtirib borishi lozim.

Musiqa savodini o'rgatish bolalarning musiqa tovushlarining eshitish sezgilarini o'sishiga asoslanishi kerak. O'quvchi biror bir tovushni ovoz bilan esga tushirishdan oldin uning qanday yangrashini aniq-ravshan tasavvur qilishi va eshitib bilishi, ya'ni ko'rayapman, eshitayapman, kuylayapman deb ko'zga ko'rinadigan narsadan eshitiladigan narsaga qarab borishi lozim.

Ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytishda ham musiqa savodini o'rganish jarayonida ham eshitish qobiliyati, metr-ritm sezgisi taraqqiy etadi. Musiqa savodini o'rganish 1-sinfda boshlanadi. Ko'pgina bolalar maktabgacha tarbiya davrida bog'chaga qatnab, bog'chadagi musiqa mashg'ulotlarida bir qancha musiqaviy malakalar hosil qilgan bo'ladilar, ko'pgina qo'shiqlar va o'yinlarni o'rganib olgan xamda ritm va raqs xarakatlari bilan tanishgan bo'ladilar.

Uyda tarbiyalangan bolalar xam muayyan musiqiy tasavvurga ega bo'ladilar; radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari bilan tanishgan bo'ladilar. Garchi ana shu bilimlar ancha tasodifiy va sistemaga solinmagan bo'lsada, ammo ashula o'qituvchisi bolalarda musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rishi mumkin. Bolalarga tovushlarning baland-pastligi tushunchasini o'rganish bolalardagi mavjud tasavvurlarni aniqlashdan boshlanadi. Bunda registr haqida tushuncha berib o'tiladi.

Registrlar xaqidagi tushunchani mustaxkamlash va o'zlashtirishni tekshirib ko'rish uchun quyidagi o'yin mashqni o'tkazish foydali bo'ladi. O'qituvchi qo'shiqni turli registrda chaladi. Bolalar esa ularni qo'l xarakatlari bilan ko'rsatib berishlari lozim. Agar qo'shiq yuqori registrda chalinayotgan bo'lsa, ular qo'llarini yuqoriga ko'tarishadi, pastki registrda chalinayotganda pastga tushirishadi, o'rta registrda - qo'llarni oldinga uzatishadi.

Bu o'yinni tikka turib bajarish yaxshiroq bo'ladi. Bolalarning musiqa savodi sohasidagi bilimlaridan qo'shiq kuyini bevosita nota yozuvisiz o'rganishda ham foydalanish mumkin.

Kuyni o'rgatishning dastlabki bosqichlaridayoq, tarkiblarni urg'usiz bo'g'inlari bilan oxiri bo'linib qolmasligi uchun tarkibdagi mantiqiy urg'ularga e'tibor berish zarur.

Ayrim tarkiblarni o'rganishda eng boshidanoq so'zlarning undosh yoki undoshlar gruppasi bilan tugashiga diqqat qilinadi. Maktabning 3-sinfidan boshlab darsda bir ovozlik qo'shiqlardan tashqari.

Ikki ovozlik qo'shiqlar, keyinroq uch ovozlik qo'shiqlar o'rganiladi. Bunday qo'shiqlarni o'rganishda xar bir partiya, bir ovozli qo'shiq o'rganilganidek, sinchiklab va xuddi o'sha metod bilan o'rganib chiqilmog'i kerak.

Bu erda o'qituvchi o'zini xamisha nazorat qilib borishi va qandaydir bir xor partiyasini ishiga ortiq darajada berilib ketmasligi lozim.

Aks xolda sinfda tartibsizlik va shovqin paydo bo'ladi. Agar o'qituvchi qo'shiqning boshini yakkaxon qo'shiqchiga topshirishni mo'ljallayotgan bo'lsa, barcha boalar qo'shiqni boshdan oxir bilishlari uchun qo'shiqning boshini butun sinf bilan o'rganish lozim.

Bolalarning qo'shiq kuyi va matnini yaxshi eslab qolishlari uchun 1-dars etarli emas. Shu sababdan qo'shiq muayyan vaqt davomida ko'p marta takrorlanadi va asta-sekin o'rganib olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sharafiyeva N.S. "Xor sinfi" Musiqa nashriyoti. T., 2005
2. Qodirov R. G'. Boshlangich maktabda ko'p ovozli kuylash. T., 1997